

**KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNI KASBGA
YO`NALTIRISHDA O`QUV FANLARINING O`RNI****Qudratova Maftuna***11-maktab psixologi*

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali siz boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'ziga xos xususiyatlari, ularning qiziqishlari va kasbiy tanlovlari xaqida ma'lumotga ega bo'lishingiz mumkin. Muallif ushbu maqola orqali kasbga yo'naltirish ishlarining maktab ta'limidagi o'rnini, uning nechog'li muhim ish ekanligi xaqida to'xtalib o'tadi.

Kalit so'zlar: Kasb, kichik maktab yoshi, psixodiagnostika, psixokorreksiya, kommunikatsiya.....

Hozirgi ilm-fan taraqqiy etib borayotgan bir zamonda o'quvchi yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga bolalaikdan boshlab e'tabor qaratishimiz lozim. Buning uchun esa maktab ta'limida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan qilingan ishlar samarasi doimo ijobiy bo'lishi kerak. Bunda O'qish va tabiatshunoslik darslarini o'qitishda fanlararo integratsiyani amalga oshirishning asosiy maqsadi — boshlang'ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur hosil qilish va tabiatdagi olam, ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatini shakllantirishdir. Shunday ekan bolalarni xar xil dars mashg'ulotlari orqali ularda kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish lozim. Buning uchun albatta quyidagi masalarga jiddiy e'tibor qaratish kerak. Ilm-fan yutuqlari va ularning insonlar hayotidagi o'rnini rivojlangan mamlakatlar maktab ta'limi mazmuni va strukturasiga ta'sir o'tkazmay qolmaydi. Mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida o'quv soatlari keskin qisqartirildi, o'quv materiallari mazmuni modernizatsiya qilindi. Bilimning integratsiyalashgan (ko'rgazmali) tarmog'ida integratsiyalashning usul va vositalari: ta'lim rejasidagi o'qitish joyida: vaqtning hajmiga qarab shu kursni to'la o'zlashtirish vaqti o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi: ko'p maqsadli va rang-barangligi hamda ko'p funksiyaga egaligi bilan tavsiflanadi. Kasbga yo'naltirish o'quvchilarda fikrlash qobiliyatining xar xil tiplarini shakllantirish, bu esa bilim (anglash) jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan, o'qish, tabiat, rasm darslarini bitta umumiy darsga birlashtirish. Odatda, bunday kurslarning mualliflari tabiiy fanlar materiallarini birlashtirib, ularni bir ma'lum tizimga keltirishadi va o'z kurslarini integrativ yoki kompleks (umumiy) deb ataydilar. Ko'rinib turibdiki, boshlang'ich ta'lim tizimidagi tabiiy fanlar bolada tabiatga bo'lgan munosabatni anglatadi. Boshlang'ich sinflarda o'qish va tabiatshunoslik fanlarini o'qitish metodikasi haqida yuqoridagi boblarda alohida to'xtalib, o'qitishning o'ziga xos jihatlari va undan samarali foydalanish-

ta'lim sifatini yaxshilashi natijasida o'quvchilar bilimni boyitib borilishi ko'zda tutiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasbiy tanlovlari ulaning o'yin faoliyatlari orqali xam bilib olish mumkin. O'qish va tabiatshunoslik darslarini o'qitishda fanlararo aloqadorlikni amalga oshirishning asosiy maqsadi — boshlang'ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur hosil qilish va tabiatdagi olam, ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatini shakllantirishdir. Mana shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'quvchisi predmet yoki voqealik hodisalarning bir necha tomondan ko'rishi va tasavvur qila olishi muhimdir. O'qish va tabiatshunoslik darslarini o'qitishda fanlararo aloqadorlikni amalga oshirish, mavzularni o'zlashtirish va olamdagi bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda ta'limga integratsiyalashgan yondashuv metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Bunga turli darslar tushunchalariga ko'p marta qaytish, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo'lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Ya'ni, yaxshi shakllangan tuzilish va o'tkazish tartibiga ega bo'lgan, tarkibiga shu o'qish va tabiatshunoslik o'quv predmetiga tegishli bo'lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin. aloqalarni o'rnatish psixologik va metodik asos bo'lgan integratsiyalashgan darslar tizimini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. O'qish va tabiatshunoslik darslarini o'qitishda fanlararo aloqadorlikni amalga oshirish, shu bilan birga fanlararo aloqalar dars tarkibi darajasida o'rgatilishi va zaruriy o'qitish vositalari bilan ta'minlanishi kerak. Tadqiqotimiz davomida o'qish va tabiatshunoslik darslarini o'qitishda fanlararo aloqadorlikni amalga oshirishda faol aqliy faoliyatga yordam beruvchi omillar — integratsiyalash uchun fanlarning ma'qul birlashishi, o'qituvchi va o'quvchi harakatlarining mos kelishi, bolalarning yosh imkoniyatlarini hisobga olgan holda mazmun, metod, usullarni tanlashdan iborat. Buning uchun avvalo, qaysi mavzular integratsiyalash uchun mos kelishini aniqlab olishimiz kerak. Bunday darslarning negizi o'qish va tabiatshunoslik fanlari asosiy mavzulari mazmunining yaqinligi va mantiqiy aloqalari. Shunday ekan bola rivojlanish davrida ekan uning kasbiy faoliyat bilan bog'liqlik xolatlari bolalikdan rivojlanib boradi. Shundan ko'rinib turibdiki o'quvchilar bilan olib boriladigan ta'lim tarbiya masalasida eng avvalo kasbga yo'naltirish ishlarining samaradorligi sezilarli darajada bo'lishi lozim. Chunki inson hayot davomida muntazam ro'llar almashinuvi bilan to'qnashadi. Bu ro'llar ijtimoiy va shaxsiy turlarga bo'linadi. Qachondir farzand, ota ona kabi ro'llar almashinuvi sodir bo'ladi, ijtimoiy ro'llar asosida esa egallagan kasblar ahamiyatli hisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'afforova T. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Tafakkur, 2011. – 160 b.

2. Haydarov Q., Nishonov S. Tabiatshunoslik asoslari va bolalarni atrof tabiat bilan tanishtirish. —T., 1992.
3. Belskaya Y.M., Grigoryans A.G. Tabiatshunoslikni o'qitish. —T., 1986.
4. 29. Belskaya Y.M., Grigoryans A. G. Tabiatshunoslikni o'qitish (3- qism). -T., 1988.

